

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)
ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)

YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
O'RINOV A.A. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)
ORIPOV A. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:
Qog'oz bichimi: - 60x84 1/8
Bosma tabog'i:
Ofset bosma: Ofset qog'oz.
Adadi: 10 nusxa
Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona,
2022.

O.Shukurov	
Neym neologizmlar xususida	244
G'.Abduvaxobov	
Amaliy tilshunoslik: elektron lug'atlar yaratish konsepsiyasi.....	250
N.Maxmudova	
Ornitonimlarning qiyosiy tahlili: o'zbek va ingliz tillarida qush nomlari bilan bog'liq birliklarning ishlatilishi.....	257
H.Davlatova	
Bolalarning aqli va nutqi rivojlanishida oilaning ta'siri.....	262
V.Abdurahmonov	
Alternativ so'roq gaplarning uslubiy-semantik tasnifi.....	267
F.Temirova	
Badiiy diskurs va diskursiv tahlil	271
A.Mirzaev	
Ko'p tillilik va uning yangi tilni o'rganishga ta'siri	276

PEDAGOGIKA

B.Khodjaev, B.Baydjanov	
Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni zararli axborotlar tahdididan himoya qilishning pedagogik asoslari va muammolari.....	280

ILMIY AXBOROT

M.Abdukamolova	
Yangi O'zbekiston: xotin-qizlar maqomi	288
P.Ro'ziboeva	
"Gilam paypoq" va "Onamning yolg'onlari" hikoyalarida ona obrazining o'xshash va farqli jihatlari	292
Sh.Uralova	
O'zbek va ingliz tilshunosligida idish-tovoq va oshxona anjomlari nomlari tadqiqot obyekti sifatida.....	295

FANIMIZ FIDOYILARI

Ilmga baxshida umr	302
Sermaksimal ilmiy ijod	303
Bibliografiya	305

“GILAM PAYPOQ” VA “ONAMNING YOLG‘ONLARI” HIKOYALARIDA ONA OBRAZINING O‘XSHASH VA FARQLI JIHATLARI

СХОДСТВА И РАЗЛИЧИЯ ОБРАЗА МАТЕРИ РАССКАЗАХ “КОВРОВЫЕ НОСКИ” И “МАМИНА ЛОЖЬ”

SIMILARITIES AND DIFFERENCES BETWEEN THE IMAGE OF THE MOTHER IN THE STORIES “CARPET SOCKS” AND “MY MOTHER’S LIES”

Ro‘ziboeva Parizoda¹

¹Parizoda Ro‘ziboeva

– Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi.

Annotatsiya

Dunyoda bir-biriga o‘xshash chehralar, o‘xshash ko‘chalar, o‘xshash ohanglar talaygina. Bu o‘xshashliklar adabiyot dunyosida ham kuzatiladi. O‘xshash nomlar, o‘xshash syujetlar va o‘xshash kechinmalar va hokazolar... Ammo ularning ifoda uslubi, o‘quvchida qoldiradigan taassurotlari o‘zgacha. Bugun o‘xshash mavzudagi o‘xshash kechimlar haqida so‘z yuritamiz. Ushbu maqolada bir mavzu va bir-biriga o‘xshash syujetdagi hikoyalarda tasvirlangan ona obrazi haqida fikr yuritiladi. Har ikki hikoyadagi ona obrazining o‘xshash va farqli jihtlariga e‘tibor qaratiladi.

Аннотация

В мире те же лица, те же улицы, те же тона много. Эти сходства можно увидеть в мире литературы. Похожие имена, похожие сюжеты и похожие переживания и т. д.... Но стиль их выражения, впечатление, которое они производят на читателя, различны. Сегодня мы поговорим о похожих опытах на похожую тему. В данной статье рассматривается образ матери, изображенный в повестях на одну тему и близкий сюжет. Обе истории сосредоточены на сходствах и различиях образа матери.

Abstract

The world has the same faces, the same streets, the same tones a lot. These similarities can be seen in the world of literature. Similar names, similar plots and similar experiences, etc.... But their style of expression, the impression they leave on the reader is different. Today we are going to talk about similar experiences on a similar topic. This article discusses the theme of a mother and the image of a mother depicted in stories with a similar plot. Both stories focus on the similarities and differences of the mother image.

Kalitso‘zlar: ifodauslubi, epizodikobraz, onashaxsiyatinishakllantish, yozuvchiyondashuvi.

Ключевые слова: стиль выражения, эпизодическое изображения, формирование личности матери, подход писателя.

Keywords: expression style, episodic image, shaping the identity of the mother, author approach.

KIRISH(ВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION)

Dunyoda bir-biriga o‘xshash chehralar, o‘xshash ko‘chalar, o‘xshash ohanglar talaygina. Bu o‘xshashliklar adabiyot dunyosida ham kuzatiladi. O‘xshash nomlar, o‘xshash syujetlar va o‘xshash kechinmalar vahokazolar... Ammo ularning ifoda uslubi, o‘quvchida qoldiradigan taassurotlari o‘zgacha. Bugun o‘xshash mavzudagi o‘xshash kechimlar haqida so‘z yuritamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРАИМЕТОД/LITERATURE REVIEW)

O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimovning “Dunyoningishlari” qissasidagi “Gilampaypoq” hikoyasini o‘qigandirsiz? Hikoyadagi kechinmalar, onaning farzandi oldidagi fidoyiligiga yana bir karra guvoh bo‘lganingiz ham yodingizdadir...

Yaqinda “Kitob dunyosi” gazetasi 2019-yil 9-oktabr sonida yozuvchi Xoliyor Safarovning hikoyalari bilan tanishib chiqarekanman “Gilam paypoq” hikoyasiga o‘xshash syujetdagi “Onamning yolg‘onlari” nomli hikoyasini o‘qibqoldim. Bir qaraganda ikki hikoya bir-biriga juda o‘xshash. Kechinmalar, ishtirokchilar, hattoki fasl ham... Lekin ifoda uslubi tubdan farq qiladi.

MUHOQAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)

Dastavval bu ikki hikoyaning boshlanmasiga e'tibor qaratsak:

“Ukam isitmalab, onam tipirchilab qoldi...” (X.Safarov)

“Har yili dam olishga borganimda onamga gilam paypoq olib kelaman...” [O'.Hoshimov 17-b]
O'. Hoshimov hikoyani sabab bilan boshlaydi. Nima uchun gilam paypoq olib kelishini qisqa satrlarda bayon etadi. X. Safarov esa ayni vaqtda bo'layotgan hodisadan so'zlaydi. “Gilam paypoq”da ishtirokchlar: ona, o'g'il – so'zlovchi va Hoji buvi.

“Onamning yolg'onlari”da esa ona, o'g'il – so'zlovchi va tabib. Yana ushbu hikoyada epizodik obrazlarni ham uchratishimiz mumkin. Ular: ota, uka, singillar va do'xturning xotini.

Har ikki hikoyada ham voqealar qish faslida bo'lib o'tadi. Ikkisida ham ona farzandi uchun jonbozlikko'rsatadi, ikkisidab ham tabib davolaydi, ikkisida ham ona oyoq og'rig'ini orttirib oladi. Ammo “Gilam paypoq” hikoyasida bemor so'zlovchining o'zi, “Onamning yolg'onlari” hikoyasida esa so'zlovchining ukasi. Bu hikoyada so'zlovchi onasi va ukasiga hamrohlik qiladi va kuzatishlarini, ko'rganlarini bayon etadi.

Bu hikoyalarda davrlashishni ham ko'rishimiz mumkin: “Gilam paypoq” da ona bolasini ko'rpaga o'raydi, “Onamning yolg'onlari”da esa odealga o'raydi. Xoliyor Safarov hikoyasi orqali bugungi davrning ko'pchilik otalari ro'zg'or tebratish, pul topish uchun chetelga ishlaganini ketayotganini ham e'tibordan chetda qoldirmaydi. Uni quyidagi fikrlar orqali bayonetadi:

“Otam shu yoqlarda ham yaxshi ishlay olmasmidi yo xo'rozlar hamma erda ham bir qichqirganidanmi, topishining tayin iyo'q edi. Uyga yuborgan pullari ro'zg'orimizdan ortmasdi. Eri chetda ishlaydigan onam o'ziga bir ko'ylak poycha olmasdi.”

Shu o'rinda so'zlovchimizning otasi haqidagi **“shu erlarda ham yaxshi ishlay olmasmidi”**, **“topishining tayini yo'q edi”**, kabi jumalari e'tiborimni tortdi. Tabiiyki, “bolalar qachondan buyon o'z otalari haqida bunday fikrlaydigan bo'ldi?” degan savol tug'iladi.

“Gilam paypoq” hikoyasida dialoglar kam uchraydi, “Onamning yolg'onlari”da esa ko'p kechinmalar ona va bola o'rtasidagi suhbatdan anglashilashiladi. Ehtimol bu hikoyaning hajmi bilan bog'liqdir. Lekin buni yozuvchining ifoda uslubiga yoysak ham yanglish bo'lmas.

“Onamning yolg'onlari” hikoyasida onaning kechinmalari, onaning tabiati, turmush sharoiti dialoglar orqali yuzaga chiqadi. Masalan, etishmovchilikdan o'ziga orttirib kiyim-kechak ololmaydigan ayol holatni eslaylik: **“Men o'zi yangi kiyim kiyolmayman. Kiysam, badanim qichimsib ketaveradi”**. Xo'sh, aytingchi, qaysi ayol yangi kiyim kiyishini istamaydi? Yana eri chetelda ishlab tursa? Lekin u ayolligi bilan emas, onaligi bilan yashaydi. Besh bolasini o'ylaydi.

“-Ona, nega uh tortyapsiz?-deb so'rasam, “Bolam, shu bozorda juda dimiqib ketamanda. Havo etishmaydi...” derdi.

Bu onaning bozordagi holati. Yozuvchi ona bilan bola bozorga chiqqanida onaning narxnavoning balandligidan kichrayib, qorayib ketishi haqida hama ytib o'tadi. “Dard odamni qoraytiradi” degan gap bor. Bu bejiz emas albatta. Onaning yuqoridagi holati bolalar, ro'zg'ortashvishi, hammasiga pul etkazishi, hammasining ko'ngliga qarashni, birini biridan kamsitmaslik haqidagi o'ylari sababidandir, ehtimol.

Yana shunisi ahamiyatliki har ikkihikoyada ham bolalar isitma bo'ladi. Biroq “Gilam paypoq” hikoyasida bola nima uchun isitmalagani sababini aytib o'tadi. Onasi hoji buvinikiga olib borgungacha bolaning tomog'ini achchiqtosh bilan chayadi, turshak qaynatib ichiradi, doka bilan tomog'ini artadi. Buni qarangki “Dard bir-davo bir”, deganlaridek tomoqni doka bilan artish “Onamning yolg'onlari” hikoyasida ham uchraydi. Lekin bu hikoyada ona farzandi yosh bo'lganligi uchun cho'chibmi, qo'rqibmi dori qilish ham esiga kelmay do'xtirnikiga chopadi. “Gilam paypoq” hikoyasida ona yupun kiyinganini tabibnikiga borib, bolasi tuzalgandan keyingina biladi. “Onamning yolg'onlari” hikoyasida esa, ona buni uydan chiqqanidayoq bilgan bo'lsa ham vaqtini yo'qotmaslik uchun shoshadi. Ona baribir ona-da. Yo'l-yo'lakay bolagaodealni, ro'molini, jemperini uzatadi. O'zi esa qorli kechada boshyalang, ko'ylakchan bo'lib do'xtirnikiga shoshadi. Shunisi ahamiyatliki, har ikki hikoyada ham ona va bola qish kechasida yo'lga o'tlanadi. “Gilam paypoq” hikoyasida insonlardagi bag'rikenglik, samimiyatga alohida e'tibor berilgan. Masalan, tabib buvining nutqiga e'tibor beraylik:

“Dod solib qo'lini tishlab oldim...”

- Nega tishlaysan, kuchukvoy?”- dediboshimnisilab...” [19-b]

Yoki ayolga nisbatan “poshsha” deb murojaat qilishini olaylik. Bu samimiyatni o‘z vaqtida hammamiz yaxshi anglaganmiz.

“Onamning yolg‘onlari” hikoyasida esa do‘xtur ishlatilgan dori-darmonning pulini **“Mayli ertaga yetkazarsiz”** deydi. Nega bugun emas? U ham vaziyatni bilib turibdi, insofli odam. Hikoyada yozuvchi feldsher, ukol, spirt, temperatura kabi so‘zlarni ham qo‘llagan. Bu so‘zlar garchi vaziyatning bir bo‘lganesa-da “Gilam paypoq” hikoyasida qo‘llanilmaydi. Bu albatta yozuvchining yondashuvi bilan bog‘liq.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS)

Xoliyor Safarov hikoyasi orqali eri chetelga ishlagani ketgan, ro‘zg‘orning tashvishi gardaniga tushgan besh bolali ayolning turmushi, kechinmalari va iztiroblari haqida so‘z yuritadi. Onaning dardi birgina farzandining betobligi emas. Aksincha, mana shu betoblik orqali ayol siyrati, ayol qalbi va kechinmalari, o‘y-tashvishlarini bayon etishga harakat qiladi. Hikoyada onaning iztiroblari aks etgan o‘rinlarni siz bilan bo‘lishmoqchiman:

“Ha, Xudoga shukr. Ukangiz har bir narsaning ikki-uch xilidan olib berib qo‘yibdi, shoshganimdan shunday chiqib ketibman-da...”

Hikoyamiz qahramoni aqlli ayol. Dardini dasturxon qilmaydi. Yo‘qchilikda ichidan zil ketsa ham o‘zgalarga, hatto bolalariga bildirmaydi, nolimaydi.

“Kechirasiz, shoshganimdan pul ham olmay chiqib ketibman...”

Shu o‘rinda o‘quvchida bir savol tug‘iladi: Pulsiz chiqqanini bilardi-ku? Ayolning puli bormidi o‘zi? Nega do‘xturdan xizmat haqini so‘radi? Negaki u ayol, u ona, u xotin. Pulim yo‘q edi desa, eri chetda ishlaydi, tugab qoldi deyishga uyaladi. Pulni kam jo‘natadi desa, erga isnod. Ayni paytda ayol turmush sharoitini bildirgisi kelmadi. To‘g‘ri qildi!

“Bilasan-ku, ko‘nglim bo‘sh. Sal narsaga ko‘zimga yosh kelaveradi...”

Bu jumla orqali ayolning o‘ziga, turmushiga xo‘rligi kelganini, ilojsizligi, imkonsizligidan yig‘laganini anglash qiyin emas. Do‘xturdan qaytayotib, yo‘lda bolasiga ro‘molini echib bergandagi holatini eslaylik: **“yursam isib ketaveraman. Kallam (boshimemas) ham qizib ketadi, shu ro‘mollar og‘irlik qil boshlaydi.”** Og‘irlik qiladi? O‘zining boshi isib ketib, bolasi boshyalang ketsa, albatta og‘irlik qiladi-da. Qaysi ona shunday yo‘l tutmaydi axir?!

“Bilasan-ku, ko‘pyursam ovqat egim kelmaydi...”

“Bilasan-ku, kam uyqu bo‘lib qolgan.”

“Ha, yaxshiman, bolam yaxshiman.”

“Hademay o‘tib ketadi. Bilasan-ku, kechasi yaxshi uxloymasam ba‘zan isitmam chiqib ketadi.”

E‘tibor bergan bo‘lgan bo‘lsangiz ona nolimaydi. Har biz holatni, vaziyat niodatiy holga yo‘yadi. Har birimizning onamiz shunday-kuto‘g‘rimi? Xoliyor Safarov bu hikoyasi orqali ona shaxsiyatini shakllantishga harakat qilgan. Kichik bir detalni ham ko‘zdan qochirmagan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION)

Xulosa qilib aytganda, har ikki hikoya ham farzandning afsuslanishi, ona shaxsini anglashi bilan yakunlanadi. To‘g‘ri, har ikki hikoyaning mavzu-mundariyasi bir xil bo‘lishi mumkin, syujetlar o‘xshash bo‘lishi mumkin, hatto ishtirokchilar ham bir xil bo‘ladi ba‘zan. Lekin hikoyadagi ruhiyat, qalb boshqa-boshqa. Uning o‘quvchiga beradigan zavqi o‘zgacha. Undagi dard o‘zgacha. Kimgadir yoqar lola, kim atirgul shaydosi... Kimgadir u hikoya yoqadi, kimgadir bu. Lekin men yashnab turgan bir butun gulzorni yoqtiraman. Undagi har bir gulning o‘z husni, o‘z atri bor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hoshimov O‘. “Dunyoningishlari”. T:2015[17-20b]
2. Safarov X. “Onamning yolg‘onlari”. “Kitob dunyosi” gazetasi. 09.10.2019.
3. <https://kh-davron.uz>
4. <https://n.ziyouz.uz.com>
5. <http://uzsmart.ru>

REFERENCES:

1. Hoshimov O‘. “Dunyoning ishlari”. T:2015[17-20 b]
2. Safarov X. “Onamning yolg‘onlari”. “Kitob dunyosi” gazetasi. 09.10.2019.
3. <https://kh-davron.uz>
4. <https://n.ziyouz.uz.com>
5. <http://uzsmart.ru>